


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 21 549,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,9 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 111,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 2,0 % ga yetdi.

2023- yilda Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mird. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
I. YAHM, jami	18 210,8	21 549,9	105,9
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 614,9	21 057,5	105,8
mahsulotlarga sof soliqlar	595,9	492,4	107,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 614,9	21 057,5	105,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7 129,3	8 246,5	106,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 692,9	7 194,7	107,3
sanoat	4 331,3	5 564,9	107,1
qurilish	1 361,6	1 629,8	107,9
xizmatlar	4 792,7	5 616,3	103,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	792,4	945,1	108,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	563,1	674,9	111,3
boshqa xizmat tarmoqlari	3 437,2	3 996,3	101,1



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 23 804,2 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 3,8 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	97,7
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	2,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	40,5	39,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	32,3	34,1
sanoat	24,6	26,4
qurilish	7,7	7,7
xizmatlar	27,2	26,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,5	4,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,2	3,2
boshqa xizmat tarmoqlari	19,5	19,0



2023-yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,7 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 39,2 %ni, sanoat tarmog'i 26,4 %ni, qurilish 7,7 %ni va xizmatlar sohasi 26,7 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



40,5 % Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

3,3 %

24,6 % Sanoat

7,7 % Qurilish

27,2 % Xizmatlar

2023- yil

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

39,2 %

2,3 %

Sanoat

26,4 %

Qurilish

7,7 %

Xizmatlar

26,7 %



Yalpi qo'shilgan qiymat

Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,4 f.p. (2022-yilda – 2,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2022-yilda – 2,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2022-yilda – 0,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,0 f.p. (2022-yilda – 1,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022-yilda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



5,9 %

Sanoat



1,7 %

Xizmatlar




1,0 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



0,6 %

Qurilish



0,2 %

Mahsulotlarga sof soliqlar




2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 106,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 39,2 %), sanoatda – 107,1 % (26,4 %), qurilishda – 107,9 % (7,7 %), xizmatlar sohasida – 103,4 % ni (26,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,1 % (4,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,3 % (3,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,1 % dan (19,0 %) iborat bo'ldi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

2022- y.

2023- y.



2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 111,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'satkichlari sanoatda – 120,0 % va xizmatlarda – 113,3 % qayd etildi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)

2022- y.

2023- y.



YAHM



114,5 %



111,8 %



Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi



115,0 %



108,8 %



Sanoat



114,0 %



120,0 %



Qurilish



118,3 %



110,9 %



Xizmatlar



111,8 %



113,3 %

2023- yilda kichik tadbirkorlik 13 382,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2022- yilda – 11 471,4 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 63,6 % ni (2022- yilda – 65,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da

2022- yil

11 471,4

65,1 %

2023- yil

13 382,8

63,6 %

